



Acharya University

**DUNYO TA'LIM OLI SH
UCHUN KELADIGAN JOY**



Acharya Tarixi

1990-yilda tashkil etilgan Acharya ta'limni inqilobiy ravishda rivojlantirishni maqsad qilgan. Dunyo bo'ylab 15,000+ talabasi va 100+ akademik dasturlari bilan u global ta'lim elitasida o'z o'rnini topgan. Hindistonning texnologik markazi Bangalor shahrida joylashgan Acharya innovatsiya va bilimni ustuvor hisoblaydi. "Silicon Valley"(kremniy vodiysi) deb ataladigan Hindistonning Bengaluru shahridan kelib chiqqan Acharya Universiteti, dunyoning eng yetakchi texnologiya markazlaridan birining innovatsion va tadbirkorlik ruhini O'zbekistonga olib kelmoqda.

35 yildan ortiq
**mukammallik
tajribasi**

15000+ talaba
75+ mamlakatdan

100+ ta
dasturlar

1000+ texnik va ma'muriy
xodimlar

60+ gektarlik kampus-inshooti
(Bangalor)

8+ gektarlik
kampus-inshooti (Buxoro)

20+ ta global bitiruvchilarning
rasmiiy bo'limlari

100000+ nafar mukammal
bitiruvchilar

**Xalqaro e'tirof etilgan
akkreditatsiyalar**





Qorako`lning Strategik Joylashuvi

Acharya Universiteti O'zbekistonning kelajakdagi Silicon Valley ga aylanishi kutilayotgan Qorako`l shahrida joylashgan. Ushbu hudud o'zining dinamik muhiti va matematikaga ixtisoslashgan iqtidorli talabalarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Qorako`l ilm-fan va innovatsiyalar rivojlanishi uchun qulay muhit yaratib, Acharya kabi universitet uchun ideal mezbon shahar hisoblanadi.

Tajribali Xalqaro Professor-O'qituvchilar

Talabalar xalqaro ilmiy-akademik va sanoat tajribasiga ega yuqori malakali professor-o'qituvchilardan ta'lim oladilar. Ular keng tajribaga ega bo'lib, talabalarga xalqaro dunyo qarashlarni kengaytirish va amaliy bilimlarni o'rgatish orqali ularning kasbiy rivojlanishiga ko'maklashadilar.

100 Ta Nufuzli Universitet Granti

Acharya Universiteti 100 ta ilmiy-akademik yutuq asosida ajratiladigan grant taklif etadi. Ushbu grantlar, ayniqsa,

iqtidorli qizlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, ularning ilmiy maqsadlariga erishishiga yordam beradi.

Sanoatga Moslashtirilgan O'quv Dasturi

Bizning o'quv dasturimiz yetakchi IT kompaniyalar va shifoxonalar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. Bu esa talabalar soha talablariga mos bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlaydi hamda ularni mehnat bozorida raqobatbardosh qiladi.

Kuchli Sanoat Hamkorligi

Acharya Universiteti yetakchi IT kompaniyalari va shifoxonalar bilan yaqin hamkorlik qiladi. Ushbu hamkorlik universitetga eng ilg'or tajribalar, zamonaviy resurslar va innovatsion yondashuvlarni olib kelib, talabalar uchun amaliy ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bizda IELTS Talab Emas:

Acharya Universitetiga kirish uchun IELTS sertifikatini talab qilinmaydi, bu esa abituriyentlar uchun hujjat topshirish jarayonini ancha soddalashtiradi.

Ingliz Tili Muloqot Kurslari:

Maxsus ingliz tili muloqot kurslari talabalar uchun global darajadagi ish imkoniyatlarini oshirish va samarali kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Majburiy Strategik Amaliyot:

Talabalar dastur doirasida majburiy amaliyot o'tash orqali sanoat tajribasiga ega bo'ladilar va haqiqiy ish muhitida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Xalqaro Ilmiy-Akademik Hamkorliklar:

Acharya Universitetining xalqaro aloqalar bo'limi jamoasi talabalarimizga chet elda tahsil olish, qo'shma tadqiqot loyihalarida ishtirok etish va turli mamlakatlardan kelgan soha

mutaxassislaridan o'rganish imkoniyatlarini taqdim etishga intiladi. Chet el universitetlari bilan o'zaro hamkorligimiz bizga xalqaro professor-o'qituvchilarni jalb etish imkoniyatini yaratadi, ular turli nuqtai nazar va tajribalarni darslarimizga olib keladi.

Acharya Universitetining Texnologiya Biznes Inkubatori:

Acharya Universitetining Texnologiya Biznes Inkubatori texnologiyaga asoslangan startap kompaniyalarining tashkil etilishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi hamda boshqa mos keluvchi texnologik aralashuvlarni amalga oshiradi. Inkubator yangi va rivojlanayotgan texnologiya tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydigan zamonaviy ekotizimni taqdim etadi, bu esa muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshiradi. Inkubator zarur infratuzilma, moliyaviy yordam, biznes maslahatlari, murabbiylik, huquqiy yordam, mahsulotni ishlab chiqish, tarmoq yaratish, tijoratlashtirish, intellektual mulkni himoya qilish, sug'urta va soliq boshqaruvi kabi xizmatlarni taqdim etadi, bu esa strategik hamkorliklarni yaratishga yordam beradi.



Acharya Ta'lim Usuli

Acharya Universitetida ta'lim jarayoni faqat auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmasdan, balki talabalar uchun har tomonlama rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydi. Biz har bir talabaga individual yondashish va ularning ilmiy-akademik muvaffaqiyatiga erishishlari uchun maxsus qo'shimcha darslar va qo'shimcha repetitorlik mashg'ulotlarini taklif etamiz.

Bizning professor-o'qituvchilarimiz o'z sohasining mutaxassislari bo'lib, ta'lim berishga ishtiyoqmand va talabalarning muvaffaqiyatiga sodiqdirlar. Ular turli innovatsion o'qitish uslublaridan foydalangan holda, talabalarni texnologiya sohasidagi murakkab vazifalarga tayyorlash uchun puxta bilim va amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlaydilar.

Acharya Universitetining pedagogikasi har tomonlama ta'lim tamoyiliga asoslanib, talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Bu yondashuv ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati va innovatsion imkoniyatlardan to'liq foydalanishiga yordam beradi.



Acharya - eng yaxshilari ichida a'losi

Sanoatga Yo'naltirilgan O'quv Dasturi

Acharya Universitet O'zbekistonda to'liq sanoatga moslashtirilgan o'quv dasturini taklif etuvchi yagona oliygo'ndir. Dasturlarimiz jahon sanoatining yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan bo'lib, talabalar zamonaviy mehnat bozoriga mos amaliy ko'nikmalar va xalqaro sertifikatlariga ega bo'lish imkoniyatiga ega.

Sanoat Sertifikati

IBM, Microsoft kabi sanoatning yirik kompaniyalaridan qimmatli sertifikatlariga ega bo'lib, ishga joylashish imkoniyatlaringizni oshiring. Bizning sanoat bilan integratsiyalashgan o'quv dasturimizning bir qismi sifatida, IBM sertifikatsiyalangan o'qituvchilar Acharya Universitetiga tashrif buyurib, talabalarga treninglar va sertifikatlar taqdim etdilar. EC Council kabi boshqa tashkilotlar va boshqa ko'p millatli korporatsiyalar ham shunga o'xshash dasturlarni talabalarimizga taqdim etadilar.



Xorijiy Til Bilimi:

IELTS imtihoni qabul uchun majburiy talab emas. Talabalarga keng qamrovli ingliz tili qo'llab-quvvatlovi taqdim etiladi.

Transport:

Buxorodan avtobus xizmati talabalarni kampus va undan tashqaridagi joylarga qulay transport ulanishi bilan ta'minlaydi.

Grantlar:

Akademik jihatdan iqtidorli va sportda yuksak natijalarga erishgan talabalar kelajakdagi yutuqlarini tan olish va rag'batlantirish maqsadida o'qish to'lovining 100% gacha grantlar bilan taqdirlanadi.

Acharya Kiberxavfsizlik Klubi EC-Council bilan Hamkorlikda Ishga Tushirildi

Acharya Universiteti, EC-Council bilan hamkorlikda Acharya Kiberxavfsizlik Klubini (AKK) tantanali ravishda ochdi, bu kiberxavfsizlik ta'limini rivojlantirishga qaratilgan katta qadam bo'ldi. Tadbirida sanoat mutaxassislarining qiziqarli ma'ruzalaridan so'ng, AKK amaliy o'rganish, sertifikatlar olish va innovatsiyalar markazi sifatida taqdim etildi. Ushbu hamkorlik O'zbekistonning kiberxavfsizlik sohasidagi ishchi kuchini shakllantirish, sanoat va akademiya o'rtasidagi bo'shliqni tugatish va butun mamlakat bo'ylab kiberxavfsizlik ta'limini kengaytirishni maqsad qilgan.



Acharya Universitetining Muhim Hamkorlik Kelishuvlari Bilan Global Aloqalarni Mustahkamlash

Strategik hamkorlik orqali Acharya Universiteti innovatsiyalarni rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro o'sishga hissa qo'shishga intiladi. Biz quyidagi nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlik memorandumi (MoU) imzolaganimizdan faxrlanamiz:

- **BUXORO PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**
- **XALQARO MATEMATIKA MAKTABI**
- **RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**
- **QORAKO'L TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI**
- **BUXORO VILOYATI YOSHLAR ISHLARI BOSHQARMASI**
- **URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI, O'ZBEKISTON**
- **TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI URGANCH FILIALI, O'ZBEKISTON**
- **XORAZM VILOYATI HOKIMLIGI**
- **URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI, O'ZBEKISTON**

Bu hamkorliklar orqali universitetimiz ilm-fan va ta'lim sohasida yangi yutuqlarga erishishda davom etadi!



Mukammallik Uchun Barpo Etilgan Kampus

Akademik Infratuzilma

Acharya Universiteti zamonaviy ta'lim muhitini yaratish maqsadida eng so'nggi texnologiyalar bilan jihozlangan auditoriyalar va ilg'or kompyuter laboratoriyalarini taklif etadi. Yetakchi IT kompaniyalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan Mukammallik Markazlari talabalarni sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik va ma'lumotlar ilmi kabi zamonaviy va talab yuqori bo'lgan sohalarda yetuk mutaxassis bo'lishga tayyorlaydi.

Zamonaviy Auditoriyalar va Laboratoriyalar

Ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan aqlli auditoriyalar va zamonaviy kompyuter laboratoriyalari interaktiv va samarali ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Ushbu muhit innovatsion o'qitish uslublari hamda amaliy ta'limni qo'llab-quvvatlaydi.

Shaxsiy Proktor

Acharya Universitetida har bir talaba uchun individual mentor (proktor) tayinlanadi. Ular shaxsiy yo'l-yo'riq ko'rsatish va akademik qo'llab-quvvatlash orqali talabalarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi. Bu esa o'z navbatida akademik muvaffaqiyat va shaxsiy rivojlanish uchun qulay muhit yaratadi.

Acharyaning Texnologiya Biznes Inkubatori

Acharya Universitetining Texnologiya Biznes Inkubatori texnologiyaga asoslangan startup kompaniyalarning shakllanishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu inkubator yangi va rivojlanayotgan texnologik loyihalar uchun to'liq qo'llab-quvvatlovchi ekotizimni yaratib, ularning muvaffaqiyatli bo'lish ehtimolini oshiradi.

Talabalar Yotoqxonasi

Acharya Universiteti qulay va zamonaviy jihozlangan yotoqxonalar bilan ta'minlaydi. Bu yerda Hindiston va O'zbekistonlik talabalar uchun qulay va inklyuziv yashash muhiti yaratilgan.

Sport va Dam olish

Universitet kampusida keng sport maydonchalari va suzish havzalari mavjud bo'lib, talabalar uchun sog'lom va faol turmush tarzini shakllantirish imkonini beradi.

Talaba Klublari

Musiqa va raqsdan tortib, teatr, kino, fotografiya va tabiatni o'rganishgacha – bizning talaba klublarimiz o'zini namoyon qilish va shaxsiy rivojlanish uchun cheksiz imkoniyatlar taqdim etadi.



Global Immersion Dasturi

Acharya Universitetining Global Immersion Dasturi (GIP) talabalarni xalqaro texnologiya olami bilan tanishtirishga qaratilgan.

Dastur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Texnik treninglar
- Shaxsiy rivojlanish bo'yicha seminarlar
- Interaktiv kurslar

Madaniy almashinuv va sanoat tajribasi:

An'anaviy chiqishlar va mahalliy sayohatlar
Yetakchi texnologiya kompaniyalari va startaplarga tashrif

Talabalar uchun xalqaro ta'lim imkoniyatlari:

1-kurs: 2 hafta davomida Acharya kampusi, Bangalore, Hindiston

2-kurs: 2 hafta davomida James Cook Universiteti, Singapur

3-kurs: 2 hafta davomida Old Dominion Universiteti, Virjiniya, AQSh

Yaqinda talabalar Acharya Institute of Technology, Bengaluru dagi 19 kunlik Global Immersion Dasturida ishtirok etib, yetakchi texnologiya mutaxassislari bilan uchrashdilar va amaliy treninglarda qatnashdilar.





O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Acharya Universiteti Boshqaruv jamoasi bilan muloqot qilmoqda.



Botir Zaripov, Buxoro Viloyati Hokimi
Acharya Universitetini tashkil etish bo'yicha Memorandum imzolash marosimida



Acharya Universiteti Himchar
Klinikasi Delegatsiyasini kutib



G'orako`I Matematika Maktabi bilan
O'zaro hamkorlik memorandumi

Global Liderlar, Bitta Kampus



Acharya Universiteti Raqamli Texnologiyalar
Vaziri o'rinbosari, janob **Rustam Karimjonovni** kutib oldi.



Acharya Universiteti O'zbekiston Sog'lig'ini
Saqlash, Ta'lim va Fan Senatining
Raisi, **professor Iminovni** kutib oldi.




Acharya Universiteti
INNOWOMENWEEK-2024 tadbirida faxr bilan
ishirok etdi, bu tadbir O'zbekistondagi olimlar
ayollarini qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan.



Raqamli Texnologiyalar Vazirligi bilan O'zaro
hamkorlik memorandumi



Acharya Universiteti O'zbekiston
Konstitutsiyasi kunini nishonladi.



An'anaviy Auditoriyadan Tashqarida Muvaffaqiyatga Erishish



Biz taklif qiladigan dasturlarT

Bakalavriat Dasturlari

Texnologiya bo'yicha bakalavr (B.Tech.)

- Kompyuter muhandisligi
- Ma'lumotlar ilmi (Data Science)
- Bulutli Hisoblash va Xavfsizlik
- Sun'iy Intelлект va Mashinani O'rganish

Kompyuter ilovalari bo'yicha bakalavr (BCA)

- Axborot texnologiyalari
- Ma'lumotlar tahlili
- Bulutli hisoblash
- Full Stack Development
- Foydalanuvchi interfeysi dizayn (UI & UX Design)

Biznes boshqaruvi bakalavri (BBA) – IT

- Biznes tahlili
- Moliyaviy texnologiyalar (Fintech)
- Raqamli marketing

Gumanitar va ijtimoiy fanlar bakalavri (Bachelor of Arts - BA)

- Ingliz tili
- Iqtisodiyot

📍 Qorako'l tumani, Buxoro viloyati,
O'zbekiston

🌐 www.acharya.uz
✉ info@acharya.uz
☎ +998 (55) 301 0009



 **Acharya
University**

